



EVOLUTIONARY FORMATS IN THE STORIES OF A.QAHHOR AND N.ESHANKUL

Ramazonova Guzal Chorievna

independent researcher:

Email: ramazonovagozal92@gmail.com

Contact number : +998902668252

Annotation: *This article studies and analyzes metamorphic prose works created in Uzbek literature, in particular stories, from the perspective of evolutionary forms. In particular, in the stories with evolutionary motifs by A. Qahhor and N. Eshonkul, the types of evolutionary forms selected in accordance with the socio-philosophical concept of the writer and adapted to the artistic and ideological level of the work are discussed. In this regard, attention is paid to the extent to which the form of metamorphosis chosen by the writer corresponds to real life reality and logic, and its importance in revealing the artistic and ideological content of the work.*

Keywords: *metamorphosis (transformation, evolution), works with metamorphosis, forms of evolution, mythology, myth, creative con*

ЭВОЛЮЦИОННЫЕ ФОРМАТЫ В ИСТОРИЯХ А. КАХХОРА И Н. ЭШАНКУЛА

Абстрактный: *В данной статье исследуются и анализируются метаморфические прозаические произведения, созданные в узбекской литературе, в частности, рассказы, с точки зрения эволюционных форм. В частности, в рассказах с эволюционными мотивами А. Каххора и Н. Эшонкула рассматриваются типы эволюционных форм, отобранные в соответствии с социально-философской концепцией писателя и адаптированные к художественно-идеологическому уровню произведения. В этой связи обращается внимание на соответствие выбранной писателем формы метаморфозы реальной жизненной действительности и логике, её значение в раскрытии художественно-идеологического содержания произведения.*

Ключевые слова: *метаморфоза (превращение, эволюция), произведения с метаморфозой, формы эволюции, мифология, миф, творческая концепция и др.*

A.QAHHOR VA N.ESHONQUL HIKOYALARIDA EVRILISH SHAKLLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek adabiyotida yaratilgan metamarfozali nasriy asarlar, xususan, hikoyalar evrilish shakllari nuqtai nazaridan tadqiq va tahlil*





etiladi. Jumldan, A.Qahhor va N.Eshonqulning evrilish motivli hikoyalarida yozuvchi ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasiga monand holda tanlangan hamda asarning badiiy-g'oyaviy saviyasiga moslashtirilgan evrilish shakllarining turlari haqida so'z yuritiladi. Bunda yozuvchi aynan tanlab olgan metamarfoza shaklining hayotiy haqiqat va mantiqqa qanchalik mos kelishi va asarning badiiy-g'oyaviy mazmunini ochishdagi ahamiyatiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: metamarfoza (turlanish, evrilish), metamarfozali asarlar, evrilish shakllari, mifologiya, mif, ijodkor konsepsiyasi va b.

Jaon adabiyotida mavjud syujetlarni zamonaviy shaxs tafakkuriga moslab yangi mazmun bilan boyitgan holda ko'plab durdona asarlar yaratilmoqda. Shunday bo'lsa-da, butun dunyo adabiyotining bir bo'lagi bo'lgan milliy nasrimizda metamarfozali asarlar haminqadar. Ammo ijodkor ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasini ifodalashda evrilish motivining o'rini ko'rsatish va ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish uchun material bo'la oladigan asarlarimiz borligini ham ko'rsatib o'tish o'rinlidir.

Ushbu metamarfozali asarlar poetikasi turli jihatlari bilan bir-biridan turli darajada farqlanib turadi. Ana shunday farqli xususiyatlardan biri har bir turlanishli asarlarda alohida hodisa sifatida maydonga keladigan evrilish shakllaridir. Asardagi har bir so'z yoki kichik detalning ham o'z yuki, badiiy vazifasi bo'lgani holda, metamarfoza shakllariga yuklatilgan vazifalar ham o'z zalvori bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, evrilish asarda ko'tarilgan muammoning, syujetdagi tugunning yechimi o'laroq eng katta yuk, vazifa aynan shu shaklga tushadi. Shu nuqtai nazardan yozuvchi to'g'ri kelgan shaklni emas, ma'lum bir maqsadga ko'ra, asar mavzusi va g'oyasiga uyg'un holda ijodkor konsepsiyasiga mos keladigan evrilish shaklini tanlaydi.

Ma'lumka, yangi o'zbek adabiyotida evrilish motivini birinchi bo'lib o'z asariga olib kirgan ijodkor A.Qahhordir. Hikoyada evrilish tush orqali asar matniga kiritiladi. Ko'knordan rohatlanib o'tirgan hikoya qahramonining labiga pashsha qo'nib, uni kayfini buzadi. Voqealar rivoji shundan keyin jadal rivojlanadi va bosh qahramonga pashshaga aylanish, shuningdek, ko'rinmas bo'lish imkoniyati beriladi. U bu imkoniyatdjan foydalanib, avvaliga kimning uyiga ko'knor bo'lsa tashib ketadi, so'ng masjid imomi kalxozning barcha rahbar va raislariga do'q-po'pisa bilan paxta ekiladigan dalalarga ko'knor ekishni buyuradi. Oxir oqibatda esa, butun qishloq ahli va jonzotlarni qirg'in qilishga buyuradi. Hikoya so'ngida o'z maqsadiga erishdim degan vaqtda uyg'onib ketadi va bu tushini bashoratga yo'yib, mulla Shamsiddin bilan karomatgo'y pashsha va toshbaqni izlab yo'lga tushadi.

Yozuvchi o'z davridagi soxta va johil mullalarni (albatta, davr talabidan kelib chiqib, biroz mubolag'a bilan) ayovsiz va oshkora tanqid qiladi. Ayniqsa, masjid imomini pashshaga aylantirib qo'yishida ularga nisbatan hukmron mafkuraning, shu bilan birga, muallifning nafrati yaqqol seziladi. O'zbek xalqini islom dinini targ'ib qiluvchi bu kabi imom va muazzinlarga ergashmaslikka, chorlov asar g'oyasini tashkil

etadi. Yozuvchi o'z qarashlarini ramziy-majoziy uslubda, shuningdek, kinoyaa va yumorga o'rab bu toifa vakillarini turgan-bitgani zararkunanda bo'lgan pashsha obrazi misolida yanayam kulgiliroq va ayanchliroq holatda bo'rttirib tasvirlaydi.

Ta'kidlab o'tish kerakki, xalqimiz nuqftai nazarida pashsha allaqachon salbiy timsolga aylangan. Binobarin, kundalik el nutqida "Pashsha bo'lma" yoki "Pashshaxo'rda bo'lma" (senga taalluqli bo'lmagan ish, gapga aralashma, burningni suqma), "Oshga pashsha tushdi" (suhbat harom bo'ldi, buzildi ma'nosida) iborasi kup qullanishi ham bejiz emas. Shuningdek, pashshaning jussasi juda kichik bo'lishiga qaramay, o'ziga yarasha ulkan muammolar keltirib chiqara olishi hamda halol-haromni farqlamay duch kelgan joyga qo'nishi kabi holatlarni ham inobatga oladigan bo'lsak, muallifning istagi yana-da ravshanlashadi.

Nazar Eshonqulning "Bahovuddinning iti" hikoyasida evrilish motivi sifati it obrazi tanlanadi. It obrazini biz Hazrat Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida, Said Ahmadning "Qora ko'z majnun" hikoyasida va ko'pgina diniy-mifologik rivoyatlar, afsonalarda ham uchratamiz. Jannatga kiruvchi hayvonlardan yetti hayvondan biri ham it ekanligi hamda bu obraz badiiy adabiyotda vafo va sadoqat timsoli hamda insonning eng yaxshi do'sti sifatida talqin qilinishi ham ma'lum. Muallif ham ayni shu sabablar uchun bo'lsa kerak bosh qahramonning ruhi va jismini ikki itga aylantirib qo'yadi. Inson ruh va tanadan iborat bo'lishiga ko'ra, bu ikkisi tasavvuf va badiiy adabiyotlarda birinchi va ikkinchi "Men" yoki ichki va tashqi "Men" hamda botiniy va zohiriy olam kabi tushunchalar bilan izohlanadi. Inson uchun esa uning botiniy, ichki olami "Men"idan yaqinroq, vafoliroq do'st topilmaydi. Muallif tana va ruhni ikki do'st, ikki oshiq-ma'shuqa kabi tasvirlar ekan, bunda vafo va sadoqat timsoli bo'lmish it obrazini tanlaydi. Shuning bilan bir qatorda, it timsolida ruhning yaratganga vafosi, sadoqati, unga talpinishi ham obarzli tasvirlanadi.

Yozuvchining "Evolutsiya" hikoyasida esa badiiy ko'chim asosida yuzaga kelgan metamarfoza shakli uchun qo'zichoq tanlanadi. Hikoyada ko'z o'ngida ota va bobosi qatl etilgan va ayni paytda qatl marosimi uchun atayin to'plangan bolalar uchun bu tragediya tomoshasi hukmron mafkuraga bo'ysundirilgan uyushtirilgan "tarbiyali soat" edi. Bosqinchilarni qatl qilinadigan odamlar emas, zero bu insonlarni mahv etilg edi, shu sababdan ularni ko'proq bu xalqning avlod-zurriyodlari tashvishga solardi. Ular oldida kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ulkan muammo turardi. Bu muammo esa qasoskor turkiylarning zurriyotlari edi. bosqinchilar bu muaamoni "hali tomirlab, ildizlab ketmasidan quritish"i kerak edi. Shu maqsad bilan Bunday yig'inlarda bolalarni to'plar va o'zlariga qarshi chiqqanlarning boshiga nimalarni solishini ko'rsatib qo'yishardi. Shunday qilib, har safar ularning murg'ak qalblariga qo'rquv va vahima, ojizlik, notavonlik, mutelik urug'i ekilardiki, toki o'zlariga qarshi bosh ko'tarmasin, qo'ydek yuvvosh bo'lib voyaga yetsin deya. Ana shunday avlodning tipik obrazini yozuvchi, avvaliga o'smir, so'ngra qo'zichoq timsolida gavdalandiradi.



Yuragida qo‘rquv va hadik bilan voyaga yetgan, ruhi sindirilgan, ojiz, himoyasiz, qo‘zichoqdek bosqinchilarning muttasil ta‘qibidan qochib yurar ekan, yoshligidayoq botinan qo‘zichoqqa aylanib bo‘lgan o‘smirning endi tashqi ko‘rinishi ham qo‘zichoqqa evrilishiga sabab bo‘ladi. U qochqinlikda, taqib ostida yashar ekan, allaqachon kim ekanligini, bir vaqtlar ota-bobosi bo‘rilardek jasur bo‘lganligini ham unutadi.

Yuqorida tahlilga tortilgan asarlar misolida evrilish shakllarining sabab va mohiyatini ko‘rib o‘tdik. Bu shakllarning har biri ijodkor ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasini badiiy uslubda ro‘yobga chiqarishda asosiy vosita – adabiy shakl o‘laroq xizmat qilgan. Ma’lumki, tasvirning ta’sir quvvati ifodaning ta’sir quvvatidan anchayin kuchli va ko‘zlangan “nishon”ga kuchli zarb bilan tega oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Jo‘raev M. O‘raeva D. O‘zbek mifologiyasi (Darslik). Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2019. 558 b.
2. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015. 356 b.
3. Qahhor A. Daxshat. (hikoyalar to‘plami). www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. Eshonqul N. Saylanma. Birinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2022. 359-bet. 512 b.
5. Eshonqul N. Saylanma. Ikkinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2022. 525-bet. 576 b.